



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKILANTIRISH

Muallif: Shahnozaxon Boymirzayeva Olimjon qizi¹, Akmladinova Madinabonu Dilshodek qizi²

Affilyatsiya: Qo'qon universiteti o'qituvchisi¹, Qo'qon universiteti talabasi²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1444022>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada MTT tarbiyachilarining kasbiy mahoratlari, mashg'ulotlarni tashkil etish uchun qanday sharoitlar yaratishlari, faoliyatlarni o'tkazish metodlari va texnologiyalari haqida ma'lumotlar berilgan. Tarbiyachik konsepsiyaning maqsad va vazifalari, tarbiyachining bolalarga ta'lim berish jarayonidagi ijodiy yondashuvi, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ijtimoiy kompetensiyasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, layoqat,qobilyat, o'qituvchi, kompetentsiya, kasbiy kompetentsiya, ta'lim sifati, kasbiy malaka.

"Farzandlarimiz tarbiyasida eng assosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib, Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etdik. Biz ushu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz, jumladan, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog'chalar qurishimiz, ta'lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim" Shavkat Mirziyoyev

Har bir bola tug'ilgandan oilada tarbiya oladi. Uch yoshdan maktabgacha ta'lim muassasasiga boradi. Maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'lim tizimining birinchi – boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari "bolalar bog'chasi" deb ham yuritiladi. Sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda bolalar bog'chasing ahmiyati katta. Chunki millatning sog'lom genofondini tarbiyalash shu tizimdan boshlanadi. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni. Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan hayot, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati, fiziologiyasi va yosh xususiyatlarini tushunishi kerak.

Ko'plab pedagog olimlar o'zlarining tadqiqot ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlarini, tarkibiy qismlarini ajratib olganlar va o'rganib chiqqanlar.

S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan:

-O'qish o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiylayotqatlilik; bilim va vaziyatlar o'rtaisdagi aloqani o'rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo'lini topish (kompetentlik deb aytish uchun birorbir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo'ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo'lib qolsa ham katta gap).

V.V. Bashevning fikricha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo'lib, ular shart-sharoitlar o'zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko'cha olishida namoyon bo'ladi.

N.G. Vigotkovskiyning fikriga ko'ra, kompetentlik – qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiytexnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir.

Maktabgacha ta'limgachalar tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar majmui aniqlandi. Ko'zda tutilgan maqsadga erishishda maktabgacha ta'limgachalar tashkilotlarda 5-6-yoshli tarbiyalanuvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar faoliyatini o'rganishda pedagogik kuzatish, anketa so'rovlari va suhbat kabi metodlardan foydalanildi. Bularning barchasi tadqiqotning asosiy yo'naliishi va dasturini muayyan darajada aniqlash imkonini berdi.

Shakllantiruvchi bosqichda maktabgacha ta'limgachalar tashkilotida bo'lajak tarbiyachining kompetentligi tashkil etishda pedagogik texnologiyalar vositasida shakllantirishda mashg'ulot ishlanmalari, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar na'munalari tayyorlandi va amaliyotda ulardan foydalanildi. Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy yechimlar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligi, kreativligi va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishda quyidagilarga ahamiyat berish zarur:

1. Tarbiyachilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini va xatti-harakatlarini tarbiyalash.
2. Tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida faoliyatlarni tashkil etish, xulq madaniyati va shaxslararo ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Tarbiyachiga jamoada o'zaro hamkorlikda faoliyatlarini olib borishlari, "Ustoz-shogird" tizimi ijobiy natijalarga olib kelishini metodlar vositasida ularning ongiga singdirish.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

"Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'limgachalar tizimi yosh avlodni barkamol ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgandir" deyiladi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida. Ana shunday barkamol insonni tarbiyalash, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'stirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha ta'limgachalar dolzarb muammolaridan sanaladi. Ushbu masala tarbiyachining pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. Shuningdek, bugungi kunda har tomonlama

rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, , jismoniy mukammallik, axloqiy poklikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faoliytkni tarbiyalashni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Qodirova F.R., Qayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika"
Toshkent-2019 -yil,672 b.

Tosheva N.T. "Maktabgacha ta'lifm -tarbiyani tashkil etish" Buxoro-2022-yil,344

Abdurashidov3., A., & Turdaliyeva, N. (2023). Development OF manual work in pre-school education. Science and innovation, 2(B2), 282-286.

Turdaliyeva, N. A. (2024). Maktabgacha yoshdag'i bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari. golden brain, 2(7), 48-52.

